



## XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL'A TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 15-aprel

VI-73-49-13-194-K/24

Ellikqal'a tumani

### **Ellikqal'a tumanida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan fuqarolar tashabbusining 2024-yil 1-mavsumi doirasida jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portalida shakllangan va g'olib bo'lgan takliflarni "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan mablag'lar ajratish to'g'risidagi**

Ellikqal'a tumanida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan fuqarolar tashabbusining 2024-yil 1-mavsumi doirasida jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portalida shakllangan va g'olib bo'lgan takliflarni "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan mablag'lar ajratish to'g'risida tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.M.Turabayevning 2024-yil 8-aprel kungi 01-35-250/20-01-32/97-sonli xati bilan kiritgan takliflarini tinglab muhokama qilib hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 19 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Ellikqal'a tumanida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan fuqarolar tashabbusining 2024-yil 1-mavsumi doirasida jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portalida shakllangan va g'olib bo'lgan takliflarga mablag'lar ajratish to'g'risida tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.M.Turabayevning 2024-yil 8-aprel kungi 01-35-250/20-01-32/97-sonli xati bilan kiritgan takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Ellikqal'a tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2024-yil 9-aprel kungi qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ellikqal'a tumanida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan fuqarolar tashabbusining 2024-yil 1-mavsumi doirasida "tuman jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha tuman ishchi komissiyasi"ning g'olib bo'lgan 10 ta loyihaga 12 mlrd. 410 mln. so'm mablag' ajratish to'g'risidagi 2024-yil 8-aprel kungi 22-sonli hamda 13-aprel kungi 24-sonli bayonnomalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha tuman Ishchi komissiyasining taklifiga asosan ovoz berish natijalariga ko'ra g'oliblar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'laridan

quyidagi belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga jami 12 mlrd. 410 mln. (o'n ikki milliard to'rt yuz o'n million) so'm moliyaviy xarajatlari quyidagi tartibda taqsimlansin:

4.1. Tumandagi Aqchako'l OFY xududidagi Ho'ja Ahror Valiy ko'chasini asfalt qilish (taklif ID raqami - 032297399002) loyihasi 4 480 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

4.2. Tumandagi Aqchako'l OFY hududidagi Farovon va At-Termiziy ko'chalarining 2 km. SHPS to'shalib turgan joyiga asfalt qoplamasini yotqizish (taklif ID raqami - 032311530002) loyihasi 3 650 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

4.3. Tumandagi Toza bog' OFY hududidan o'tuvchi ichki yo'lni 4.1 km qismini chuqurchali ta'mirlash va asfalt yotqizish (taklif ID raqami - 032298703002) loyihasi 3 270 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 350,0 mln. so'm mablag';

4.4. Tumandagi "Guliston" va "Qizilqum" OFYlarning aholisiga tabiiy gaz yetkazib beruvchi diametri – 159 mm bo'lgan yuqori bosimli yer usti tabiiy gaz tarmog'ining 3 km qismini rekonstruksiya qilish (taklif ID raqami - 032298366002) loyihasi 2 864 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

4.5. Tumandagi Toza bog' OFYning Qizil yarim oy aholi punktidan Navbahor MFYgacha bo'lgan 1.8 km qismini asfalt qilish (taklif ID raqami - 032301992002) loyihasi 2 595 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

4.6. Tumandagi Qirqqizobod OFYning Abdulla Alimov va Qirqqizobod ostonasi ko'chalariga 4000 metr piyodalar yo'lakhasi qurish. 1800 dan ortiq o'quvchilarning maktabga xavfsiz borib-kelishini ta'minlash (taklif ID raqami - 032312210002) loyihasi 2 575 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 300,0 mln. so'm mablag';

4.7. Tumandagi Dumanqal'a MFY hududiga tortilgan tabiiy gaz liniyasi yaroqsiz holatda bo'lganligi sababli yangidan 114 mm diametrli po'lat quvurli 3,2 km gaz liniyasi tortish (taklif ID raqami - 032297594002) loyihasi 2 504 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

4.8. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 8-maktabning sport maydonchasiga sun'iy qoplamali gazon qurish (taklif ID raqami - 032298570002) loyihasi 2 389 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 800,0 mln. so'm mablag';

4.9. Tumandagi Ellikqal'a OFY ning Visol ko'chasiga 1 km asfalt yotqizish (taklif ID raqami - 032312697002) loyihasi 1 681 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 800,0 mln. so'm mablag';

4.10. Tuman markazida joylashgan Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumini 1 va 2-o'quv binolari va xo'jalik binosini ichki qismini zamonaviy qilib mukammal ta'mirlash (taklif ID raqami - 032323886002) loyihasi 1 506 ta ovoz bilan g'olib deb topilib, loyihaga 1 mlrd. 360,0 mln. so'm mablag';

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (M.M.Turabayev) Ishchi komissiyaning ishchi organi sifatida Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirib borishi belgilab qo'yilsin.

6. Ishchi komissiya takliflar bo'yicha har bir tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'ning dastlabki miqdorini aniqlab, tanlab olingan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'ning dastlabki miqdoriga loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha aniqlik kiritib borsin.

7. Tuman Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha tuman Ishchi komissiyasiga:

- har yilning belgilangan muddatida tuman mahalliy budjetining “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilab borishga;

- “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) maxsus g‘azna hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini belgilash bo‘yicha taklifni tasdiqlash uchun tegishli Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borishga;

- ovoz berish jarayoni yakunlariga ko‘ra, Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan tadbirlar bo‘yicha takliflarni tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashiga moliya yilining belgilangan muddatlarida o‘z vaqtida kiritib borishga;

- har oyning yakunlari bo‘yicha keyingi oyning 10-kuniga qadar loyihalar bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumot, video-rolik va fotolavhalarning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borilishini ta‘minlashga;

- tashabbusli budjet jarayonlari ijrosi to‘g‘risida har chorak yakunlariga ko‘ra keyingi oyning 25-sanasiga qadar mazkur Nizomning 6- va 7-ilovalarida keltirilgan shakllarda hisobotlar tuman hokimligining rasmiy veb-sayti hamda Portal orqali jamoatchilikka e‘lon qilib borishga;

- har yili 25-yanvarga qadar o‘tgan yilda o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayonlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borishga;

- Ishchi komissiya har yili 10-fevralga qadar ajratilgan mablag‘larning sarflanishi yuzasidan tasdiqlangan hisobotni “Ochiq budjet” axborot portaliga joylashtirib borishga mas‘ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

8. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan miqdori Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori qabul qilingandan so‘ng uch ish kunida o‘tkazib berish vazifasi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.M.Turabayev)ga topshirilsin.

9. Tuman mahalliy budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a‘zolari shaxsan javobgar hisoblanishi belgilab qo‘yilsin.

10. Ishchi komissiya hususan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.M.Turabayev) O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining talablariga asosan budjet mablag‘lari taqsimlovchilarining budjet mablag‘laridan samarali foydalanishi ustidan tegishli ravishda qat‘iy nazorat o‘rnatish va ko‘rilgan chora- tadbirlar natijalari bo‘yicha hisobotlarini Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashi muhokamasiga o‘z vaqtida kiritib borilishini ta‘minlasin.

11. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish vazifasi tuman hokimi o‘rinbosari A.Seitov va Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

12. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot-vositalarida e‘lon qilish vazifasi yuklansin.

13. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

Kengash raisi o‘rinbosari



BAYNAZAROV ANVAR  
KALANDAROVICH